HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ASOSIDA AXBOROT MATNLARI BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Faxritdinova Shoira

Jizzax viloyati Zomin tumani 29-umumiy o‘rta ta’lim

maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22899912

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot matnlari bilan ishlash ko‘nikmalarini sun’iy intellekt vositalari asosida rivojlantirish metodikasi yoritiladi. Tadqiqotda 4-sinf o‘quvchilari bilan axborot matnini tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash, savol tuzish, matndagi dalillarni ajratish va qisqa xulosa chiqarishga qaratilgan topshiriqlar qo‘llandi. Sun’iy intellektdan tayyor javob olish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchining fikrlashini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi sifatida foydalanish taklif etildi. Natijalar o‘quvchilar sun’iy intellekt yordamida tuzilgan turli darajadagi savollar va qayta aloqa orqali axborot matnini chuqurroq tahlil qila olganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, sun’iy intellekt, axborot matni, o‘qib tushunish, savol tuzish, asosiy g‘oya, tanqidiy fikrlash, metodika.

Abstract.The article presents a methodology for developing primary school pupils’ skills of working with informational texts through artificial intelligence tools. The study used tasks aimed at text comprehension, identifying the main idea, generating questions, distinguishing facts and making short conclusions. Artificial intelligence is treated not as a source of ready-made answers, but as a tool that supports pupils’ thinking and reflection.

Keywords: primary education, artificial intelligence, informational text, reading comprehension, main idea, critical thinking, methodology.

Аннотация.В статье раскрывается методика развития у младших школьников навыков работы с информационными текстами на основе средств искусственного интеллекта. В исследовании использовались задания, направленные на понимание текста, определение основной мысли, составление вопросов, выделение фактов и формулирование краткого вывода. Искусственный интеллект рассматривается не как средство получения готового ответа, а как инструмент поддержки мыслительной деятельности ученика.

Ключевые слова: начальное образование, искусственный интеллект, информационный текст, понимание прочитанного, основная мысль, критическое мышление, методика.

KIRISH.Boshlang‘ich sinfda o‘qish darslarining muhim vazifalaridan biri o‘quvchini matnni faqat ovoz chiqarib o‘qishga emas, balki undan kerakli ma’lumotni topish, ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash va o‘z xulosasini aytishga o‘rgatishdir. Ayniqsa, axborot matnlari bilan

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ishlashda bu ko‘nikmalar alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday matnlarda hodisa, narsa, jarayon yoki voqea haqida aniq ma’lumot beriladi. O‘quvchi esa ma’lumotni tanlashi,tartiblashi va undan kundalik hayotda ham foydalanishni bilishi kerak bo‘ladi. Axborot matni bu voqea-hodisalar, faktlar, shaxslar yoki buyumlar haqida xolis ma’lumot beruvchi matndir.[1] Uning asosiy maqsadi kitobxonni qiziqtirish yoki ishontirish emas, balki uni aniq dalillar bilan tanishtirish hisoblanadi.Uni boshqa matn turlaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlaridan biri eng avvalo xolislikdir.Bunday matnlarda muallif o‘z fikrini yoki his-tuyg‘ularini aralashtirmaydi.Yana bir xususiyati uning mantiqiyligi va aniqligidir ya’ni matnda aniq sanalar, raqamlar, joy nomlari va faktlar keltiriladi hamda ma’lumotlar izchil va tushunarli tartibda bayon etiladi.[2]Bundan tashqari, axborot matnlari sodda ya’ni ommabop va ortiqcha bezaklarsiz tilda yoziladi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt vositalari ta’lim jarayoniga tobora shiddat bilan kirib kelmoqda. Biroq boshlang‘ich sinfda undan foydalanish masalasi ko‘pincha “Sun’iy intellektdan foydalanish mumkinmi?” degan umumiy savol doirasida qolib ketadi. Asosiy masala esa undan qanday maqsadda,qaysi didaktik vazifada va qanday tartibda foydalanishdir.Agar o‘quvchi matnni o‘qimasdan turib sun’iy intellektdan tayyor javob olsa,unda o‘qish ko‘nikmasi rivojlanmaydi. Aksincha, sun’iy intellekt o‘quvchining javobini tekshirish, qo‘shimcha savollar tayyorlash, turli qiyinlikdagi topshiriqlar tuzish va matndagi fikrlarni aniqlashtirish uchun ishlatilsa, uning o‘quv imkoniyati oshadi.Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot matnlari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini ko‘rsatishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR.Tadqiqot 4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan axborot matnlari asosida tashkil etildi. Matnlar o‘quvchilarning yoshiga mos, mazmuni aniq va hajmi nisbatan qisqa bo‘lishi hisobga olindi. Mashg‘ulotlarda “Fazoga sayr”, “Madhiya nima?”, “Bayroqlar nimani anglatadi?” kabi mavzulardagi hamda yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi axborot matnlari namuna sifatida tanlandi. Har bir matn bilan ishlash bir xil tartibda emas, balki o‘quv maqsadiga qarab turli topshiriqlar orqali olib borildi.Metodika to‘rt bosqichdan iborat etib ishlab chiqildi: 1) dastlabki tushunishni aniqlash; 2) matndan aniq ma’lumotni topish; 3) ma’lumotlarni taqqoslash va bog‘lash; 4) o‘qilgan matn asosida mustaqil xulosa chiqarish. Sun’iy intellekt vositalari aynan shu bosqichlardagi topshiriqlarni moslashtirish va o‘quvchiga qayta aloqa berish uchun qo‘llanildi.Masalan,Bu metodikani 4-sinf O‘qish savodxonligi darsligidagi “Bayroqlar nimani anglatadi?”matnini o‘qitishda quydagicha qo‘llash mumkin:

---

[1] **Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh.** Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.

[2] **Mullis I.V.S., Martin M.O.** PIRLS 2021 International Results in Reading. – Boston College, 2023.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr



Birinchi bosqichda o‘quvchilar matnni mustaqil o‘qiydi va asosiy mazmunni o‘z so‘zlari bilan aytadi. Bu bosqichda sun’iy intellektdan foydalanish shart emas. Keyingi bosqichda o‘qituvchi matn mazmuni asosida turli darajadagi savollarni tayyorlaydi yoki sun’iy intellekt yordamida savollar bankini yaratadi. Masalan: “Har bir davlat bayrog‘i nimani anglatadi?”, “Bayroq nima va u nimani bildiradi?”,

“Bayroqdagi moviy rang nimani anglatadi?”,”Oq rang qanday ma’noga ega?”Savollar oddiydan murakkabga qarab beriladi.Uchinchi bosqichda o‘quvchilar sun’iy intellekt taklif qilgan qisqa xulosani matn bilan solishtiradi. Bunda “Qaysi fikr matnda bor?”, “Qaysi jumla ortiqcha?”, “Xulosa qaysi dalil bilan tasdiqlanadi?” kabi savollar qo‘yiladi. Bu usul o‘quvchini sun’iy intellekt javobini ham tayyor haqiqat sifatida qabul qilmaslikka va mulohaza qilishga o‘rgatadi.

To‘rtinchi bosqichda o‘quvchi matn yuzasidan qisqa xulosa yozadi. Shundan keyin sun’iy intellekt yordamida o‘quvchining Grammatik xatolarini emas, avvalo yozgan matnidagi mazmunning aniqligini tekshirish mumkin. Masalan, “O‘quvchi xulosasida asosiy g‘oya bormi?”, “Xulosa matndagi ikki dalilga tayanadimi?” kabi aniq savollar berish orqali matnni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlash mumkin bo‘ladi.Ushbu tadqiqotda kuzatish, topshiriqlar natijasini qiyoslash, o‘quvchi ishlari tahlili va suhbat metodlaridan foydalanildi. Baholash uchun besh mezon belgilandi: asosiy g‘oyani aniqlash, aniq ma’lumotni topish, dalilni ajratish, savol tuzish va xulosa chiqarish. Har bir mezon o‘quvchining harakatiga qarab uch darajada ya’ni yuqori, o‘rta va boshlang‘ich darajada baholandi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

NATIJALAR.Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning, ayniqsa ,ikki turdagi faoliyatida ya’ni matn yuzasidan savol tuzish va xulosa chiqarishda ijobiy o‘zgarish kuzatildi. Dastlab ko‘pchilik o‘quvchilar faqat “Kim?”, “Nima?” kabi savollar tuzgan bo‘lsa, sun’iy intellekt yordamida turli savol namunalarini taqqoslashdan so‘ng “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar ... bo‘lsa, nima bo‘ladi?” shaklidagi savollarni ham qo‘llay boshlashdi.Asosiy g‘oyani aniqlashda ham o‘zgarish kuzatildi. O‘quvchilar avval matndan bitta qiziqarli jumlani asosiy g‘oya deb belgilashga e’tibor qaratdilar,so‘ngra qayta aloqa va bir nechta xulosa variantlarini taqqoslash orqali ular asosiy g‘oya matndagi alohida fakt emas, balki matnning umumiy mazmunini ifodalashini yaxshiroq anglay boshladilar.Ushbu metodikaning samarali tomoni shundaki, sun’iy intellekt har bir o‘quvchi uchun bir xil topshiriqni takrorlash o‘rniga turli murakkablikdagi qo‘shimcha savollarni tayyorlash imkonini berdi. Masalan, matnni tez tushungan o‘quvchi sabab-oqibat bog‘lanishiga oid topshiriqni bajardi, qiynalgan o‘quvchiga esa matndan tayanch so‘zlarni topish topshirildi.Shu bilan birga,tahlillar davomida sun’iy intellektni qo‘llashga oid bir qancha muhim cheklovlar aniqlandi.Bunda sun’iy intellekt javobini darsda bevosita va nazoratsiz berish o‘quvchining mustaqil izlanishini kamaytirishi mumkinligi isbotlandi. Shuning uchun ushbu metodikada “avval o‘quvchi javobi keyin sun’iy intellekt yordami so‘ngra esa taqqoslash ketma-ketligi asosiy qoida sifatida belgilandi.

MUHOKAMA.Natijalar sun’iy intellektning o‘zi o‘quvchining o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirmasligini ko‘rsatadi. Natija vositadan qanday foydalanishga bog‘liq. Agar u tayyor mazmun yoki tayyor xulosa berish uchun qo‘llansa, o‘quvchi passiv qabul qiluvchiga aylanishi mumkin. Agar vosita savol berish, variantlarni taqqoslash va xatoni aniqlash uchun ishlatilsa, u o‘quvchining faol fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydi.Boshlang‘ich sinf uchun eng qulay usul — sun’iy intellektni o‘qituvchining o‘rniga qo‘ymaslikdir[3]. O‘qituvchi matnni tanlaydi, topshiriq maqsadini belgilaydi, o‘quvchi javobini baholaydi va zarur holatda vosita taklif qilgan javobni tuzatadi. Sun’iy intellekt esa darsni individuallashtirish va tezkor qayta aloqa berishga xizmat qiladi.Taklif etilgan metodika ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llash uchun qulay. U quyidagi ketma-ketlikda tashkil etilishi mumkin: matnni mustaqil o‘qish; dastlabki savollarga javob berish; asosiy g‘oyani aniqlash; dalillarni ajratish; sun’iy intellekt yordamida tuzilgan savollar bilan ishlash; o‘z javobini tekshirish; yakuniy xulosa yozish. Bu ketma-ketlik o‘quvchini tayyor javobga emas, dalilga tayanishga yo‘naltiradi.

XULOSA.Boshlang‘ich sinflarda axborot matnlari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish o‘quv maqsadi aniq belgilangan taqdirdagina samarali bo‘ladi. Sun’iy intellektdan matnni o‘quvchi o‘rniga tushuntirib beruvchi vosita sifatida emas, balki savol tuzuvchi, qayta aloqa beruvchi va fikrlarni taqqoslashga yordam beruvchi vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.Tadqiqot asosida quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, o‘quvchi avval matn bilan mustaqil ishlashi kerak;

Ikkinchidan, sun’iy intellektdan olingan javob matndagi dalillar bilan tekshirilishi lozim;

Uchinchidan, vositaga qisqa va aniq didaktik ko‘rsatma berish kerak;

[3] **Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A.** Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

To‘rtinchidan, yakuniy baholash o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur. Bunday yondashuv o‘quvchining asosiy g‘oyani aniqlash, dalil va xulosani farqlash, savol tuzish hamda o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Kelgusida mazkur metodikani turli sinflar, turli hajmdagi axborot matnlari va aniq diagnostik mezonlar asosida kengroq sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. **“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun**. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. **“Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”**.
4. **To‘xtaxo‘jayeva M.X.** Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
5. **Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O.** Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
6. **Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh.** Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
7. **Matchonov S.** Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – Toshkent.
8. **Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B.** Ta’lim texnologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
9. **Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A.** Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
10. **Azizxo‘jayeva N.N.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
11. **Mullis I.V.S., Martin M.O.** PIRLS 2021 International Results in Reading. – Boston College, 2023.
12. **Duke N.K., Ward A.E., Pearson P.D.** The Science of Reading Comprehension Instruction. – The Reading Teacher, 2021.
13. **Snow C.** Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. – Santa Monica: RAND Corporation, 2002.